

## O'ZBEK XOR SAN'ATIDA PROFESSOR NAYIRA SHARAFIYEVANING IJODIY FAOLIYATI

**Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336859>

*Annatsiya.* Nayira Saxobovnaning pedagogik faoliyatlarini tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, har bir shogirdlarining dunyo qarashi va salohiyatini mukammal bilib, talabaning o'sishi uchun maqsadli ta'lim tizimini yarata oladilar. Hozirgi kunda ularning shogirdlari nafaqat yurtimizda, balki chet-el davlatlarida ham ustozdan olgan saboqlari orqali o'z ijodiy faoliyatlarini olib bormoqdalar.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy portret, xalq ijodiyoti, xalq qo'shiqlari, xor uchun qayta ishlangan asarlar, xor uchun moslashtirilgan asarlar, xor ijrochiligi.

## ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОФЕССОРА НАИРЫ ШАРАФИЕВОЙ В УЗБЕКСКОМ ХОРОВОМ ИСКУССТВЕ

*Аннотация.* Результат анализа педагогической деятельности Наиры Сахобовны показал, что она прекрасно знает мировоззрение и потенциал каждого своего ученика и способна создать целевую образовательную систему для роста ученика. В настоящее время его ученики осуществляют свою творческую деятельность не только в нашей стране, но и в зарубежных странах через уроки, полученные от своего учителя.

**Ключевые слова:** Творческий портрет, народное творчество, народные песни, переработанные произведения для хора, адаптированные произведения для хора, хоровое исполнение.

## CREATIVE ACTIVITY OF PROFESSOR NAYIRA SHARAFIYEVA IN UZBEK CHORAL ART

*Abstract.* The result of the analysis of Nayira Sakhobovna's pedagogical activities showed that she perfectly knows the world view and potential of each of her students and is able to create a targeted educational system for the growth of the student. Nowadays, his students are carrying out their creative activities not only in our country, but also in foreign countries through the lessons they received from their teacher.

**Keywords:** Creative portrait, folk art, folk songs, reworked works for the choir, adapted works for the choir, choral performance.

## KIRISH

Nayira Sharafiyeva juda ko'p yillar mobaynida "Akademik xor dirijyorlik san'ati", "Xor aranjirovasi", "Xor aranjirovka mahorati", "Bolalar tarbiyasi va ta'limi metodikasi", "Xor sinfi" kabi fanlarni samarali va yuksak darajada olib borgan va hozirgi kunda ham mutaxassislik fanlaridan bakalavr, magistratura talabalariga ulkan tajriba bilan saboq bermoqda.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ko'p yillar kafedra mudiri, talabalar xorining rahbari bo'lib, ular bilan G.F.Gendel, I.S.Bax, A.Vivaldi, V.Motsart, G.Sviridov, S.Slonimskiy, N.Sidelnikov, Y.Falik, F.Yanov-Yanovskiy, P.Medyulyanov, R.Abdullayev va boshqa ko'plab kompozitorlarning asarlarini ijro etgan. Talabalar xori ustozimiz rahbarligida Moskva, Samarqand, Buxoroda o'zining ijodiy konsertlarni muvaffaqiyatli tarzda ijro qilgan. Shuningdek, talabalar xori Nayira Sharafiyeva va

Lyubov Djumayevalarning rahbarligida Germaniya, AQSH, Fransiya, Isroil elchixonalari ko‘magida xalqaro musiqa loyihalarini o‘tkazgan.

Ular orasida: I.S.Baxning “Страсти по Иоанну”, “Рождественская оратория”, G.F.Gendelning “Messiya”, Y.Gaydnning “Сотворение мира” oratoriyalari, K.Orfning “Karmina Burana” kantatasi va boshqa jahon darajasidagi murakkab asarlarni professional tarzda ijro etib mutaxassislarning e‘tirofiga sazovor bo‘lganlar. Ustozimizning ko‘p yillik mehnat tajribalari, ilmiy-amaliy izlanishlarida Markaziy Osiyo xalq qo‘shiqlari va o‘zbek milliy kuy-qo‘shiqlarining xor uchun qayta ishlangan namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Mohir xormeyster tomonidan moslashtirilgan yoki qayta ishlangan asarlar zamonaviy o‘zbek xor ijrochiligining rivojida salmoqli o‘rin tutadi.

## TADQIQOT NATIJALARI

N.Sharafiyeva tomonidan o‘zbek xalq qo‘shiqlari asosida “O‘zbekiston taronalari”, Muqimiy g‘azali, xalq kuyi “Ey, nozanin”, Chokar g‘azali, o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Mustahzod”, A.Oripovning “Munajatni tinglab” va “Munojot kuyi” asosida “Faryod”, Dilafgor g‘azali, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari “Dugoh Husayni IV” asosida “Tarona”, Z.M.Bobur g‘azaliga, rost maqomidan “Soqiynomai savti kalon”, Muqimiy g‘azali, xalq kuyi “Ul parivash”, U.Xayyom ruboiysiga o‘zbek xalq kuylari asosida “Ruboiy”, Sho‘xiy g‘azali, xalq kuylari asosida “Nasihat”, E.Ohunova she‘ri, S.Yuldoshev musiqasi “Sayribog‘”, o‘zbek xalq qo‘shiqlari “Deydi-yo”, “Sunbul”, “Shabboda”, “Qarsak o‘yini”, “Hazil”, “Navro‘z salomi”, “Shodiyona”, Xorazm kuy-qo‘shiqlari asosida “Xorazm navolari”, “O‘ynar”, “Tasadduq”, “Ey mehribonim”, uyg‘ur kuy-qo‘shiqlari asosida “Uyg‘urcha raqs”, “To‘y sanem”, qoraqalpoq xalq dostonlari, qo‘shiqlari asosida “Yara yandim”, “Sunday kuldim”, “Jananim”, tojik xalq qo‘shig‘i asosida “Yak dasta gul”, Ozarbayjon xalq qo‘shiqlari asosida “Guzalim sen”, “Leylajan”, tatar xalq qo‘shiqlari asosida “Tan atkanda”, qozoq folklorlari asosida “Oqin navolari”, bolalar xor jamoalari uchun U.Abduazimova she‘riga “Alla”, o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari asosida “Childirma chola”, “Deydi-yo”, “Navro‘z salomi”, va “Hazil” kabi xor uchun qayta ishlangan namunalar yaratilgan bo‘lib, bolalar, havaskor va professional xor jamoalari ijodiy repertuarlaridan muqim o‘rin egallab kelmoqda.

## MUHOKAMA

Ulardan G.Mansurova R.Glier nomidagi RIMMning “Xor dirijyorligi” bo‘lim boshlig‘i, D.Naipova va G.Xudaynazarova R.Glier nomidagi RIMM “Xor dirijyorligi” bo‘limining yetakchi ustozlari, N.Ibragimova Guliston san‘at maktabining “Xor dirijyorligi” bo‘lim boshlig‘i, M.Xalilova 25-BMSM direktor o‘rinbosari, B.Xudoyqulov A.Navoiy nomidagi DAKT dirijyori, shuningdek, T.Tlegenov A.Tolepova, M.Boboxonov, V.Nazarmuxamedova, A.Olimov, N.Rasulova, M.Muratova kabi shogirdlarini sanab o‘tishimiz mumkin. Ta‘bir joiz bo‘lsa men ham sevimli ustozimizning shogirdlari ekanligimdan faxrlanaman.

## XULOSA

Ustozimizdan olgan bilimlarimiz asosida o‘z ijodiy faoliyatimizni qurib, ularning maslahatlari ila rivojlanib bormoqdamiz.

## REFERENCES

1. N.Sharafiyeva - “O‘zbekiston taronalari” T. 2014 y.
2. N.Sharafiyeva – “Xor sinfi” T. 2004 y

3. O‘.Shokarimov – “Professor N.S.Sharafiyevatining ijodiga bir nazar” Madaniyat choraxalari jurnal. 2020 y.